
“TEMIR DAFTAR”DAGI OILALARGA BEPUL QUYOSH PANELLARI O’RNATIB BERILDI



Qo’shtepa tumanida tuman hokimi rahbarligida mahallalardagi yoshi ulug’ keksalar, imkoniyati cheklangan va kam ta’minlangan, shuningdek, mehrga muhtoj kishilar xolidan xabar olinmoqda.



Bugun, tuman hokimi I.Novikov va tuman prokurori A.Xudoyberganovlar O’qchi MFYda “Temir daftarda” turuvchi M.Axunova va Sohibkor MFYda “Temir daftarda” turuvchi A.Toshpo’latovalarning xonadonida bo’ldilar.

Saxovat tadbiri davomida ushbu oilalarga oziq-ovqat to’plamlari yetkazib berildi va har ikki oilaning imkoniyatlari hisobga olinib, bepul quyosh paneli ham o’rnatib berildi.

Xonadon egalari Davlatimiz rahbari tomonidan berilayotgan bunday yuksak e’tibor uchun minnatdorchilik bildirishdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-05-01 18:18:41